



Fidoyilik –  
Vatanga xizmat demak!

1913-yil aprel oyidan chiqqa boshlagan



2024-yil 28-sentabr, shanba,  
112 (23.989)-son

KUN  
HIKMATI

Hayotni  
anglashdan  
ko'ra uni  
o'zgartirish  
osonroq

# Zarafshon

[www.zarnews.uz](http://www.zarnews.uz) <https://www.facebook.com/zarnews.uz> [@zarnews\\_uz](https://twitter.com/zarnews_uz) [https://twitter.com/zarnews\\_uz](https://twitter.com/zarnews_uz)

## Xitoy delegatsiyasi Samarqandda



Huquqni muhofaza qilish faoliyati va xavfsizlik sohasidagi O'zbekiston-Xitoy hamkorlik mexanizmining birinchisi yig'ilishiда ishtirok etish uchun mamlakatimizga tashrif buyurgan Xitoy Kommunistik partiyasi Markaziyo qo'mitasiga Siyosiy byurosi a'zosi, siyosiy-yuridik komissiyasi kotibi Chen Vensin boshchiligidagi delegatsiya kecha Samarqandda bo'ldi.

Mehmonlar dastlab Mirzo Ulug'bek rasadxonasida bo'lib, buyuk olimning astronomiya fani rivojiga qo'shgan hissasi, hukmdor sifatidagi buniyodkorlik ishlari haqida ma'lumotlarga ega bo'ldi.

"Afrosiyob" muzeysi, Amir Temur maqbarasi va Registon majmuasi bilan tanishuv chog'ida Xitoy delegatsiyasiga xalqimizning davlatchilik tarixi, ajodolarimiz tomonidan bonyod etilgan tarixiy obidalari va ularni asrab-avaylash borasida amalga oshirilayotgan ishlari haqida gapirib berildi.

Samarqandga safar davomida Xitoy Kommunistik partiyasi Markaziyo qo'mitasiga Siyosiy byurosi a'zosi, siyosiy-yuridik komissiyasi kotibi Chen Vensin viloyat hokimi E.Turdimov bilan ham uchrashdi.

Uchrashuvda keyingi yillarda barcha sohalarda rivojlanib borayotgan O'zbekiston – Xitoy munosabatlarni yanada mustahkamlash, ikki davlat hududlari o'rtaisdagi savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar aloqlar ko'lamini kengaytirish zarurligi ta'kidlandi.

## Abu Dabi Taraqqiyot jamg'armasi ishtirokida mehmonxona quriladi

Viloyat hokimi Erkinjon Turdimov Abu Dabi Taraqqiyot jamg'armasi bosh direktori Muhammad Saif Al Suvaydi boshchiligidagi delegatsiya bilan uchrashdi.

Hokimlik axborot xizmatining ma'lum qilishicha, uchrashuvda tomonlar so'nggi yillarda O'zbekiston – Birlashgan Arab Amirliklari hamkorligi rivojlanib borayotganligini ta'kidladi. Ayni paytda Samarqand shahrida Abu Dabi Taraqqiyot jamg'armasi ishtirokida suv ta'minoti tizimlari va yo'l tarmoqlarini modernizatsiya qilish ishlari olib borilmoqda.



Samarqand mehmonlari

Quyoshli kunlari ko'p bo'lgan yurtimizda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish juda samarali. Tejamkor qurilmalar uyingizni elektr bilan ta'minlashdan tashqari cho'ntagingizga daromad ham keltiradi. Past Darg'om tumanı Nayman mahallasida yashovchi Alisher Hamroyev o'z xonadoniga quyosh batareyalari o'rnatib daromad olayotganlardan biri. U ikki yilden buyon 15 KVlik quyosh panellari orqali muzlatkich, 2 ta konditsioner, televizor, o'nga yaqin tejamkor chiroqlardan foydalanim keladi.

## Quyoshdan daromad olayotgan usta



- Uydan tashqari ustaxonamda ham turli qurilmalar ishlatalaman, - deydi avtomashina usta-si A.Hamroyev. - Shu paytgacha elektr energiyasi uchun ko'p mablag' sarflardim. Uyimiz tominga quyosh panellari o'rnatganimda ayrim tanishlarim «uning foydasi yo'q, muzlatich va konditsionerni yoqishga kuchi yetmas ekan, tez ishdan chiqarkan», deyishgandi. Shunday bo'lsa-da, 28 dona panelni batareyasi bilan keltirib o'rnatdik. Mana, hozircha beto'xtov ishlab turibdi. Quyosh chiqsa bo'ldi, hamma uskunalar bekami-ko'st ishlaydi.

Ehtiyojdan ortgan elektr quvvatini sotib, daromad ham qilyapman. Usta ortiqcha elektr energiyasini sotish mumkinligini eshitgach, «Soliq» platformasidan onlayn tarzda ro'yxatdan o'tdi. - Bir kuni qo'lli telefonimga «Sizning tejab, davlatga o'tkazgan elektr energiyangiz uchun 600 ming so'm mablag' o'tkazib berilyapti», degan SMS keldi, - deydi Alisher usta. - Ishnomadim, tekshirib ko'rsam, rostdan ham kelib tushib. Shundan buyon har oyda turli miqdorda pul kelib tushadi. Iyl oyida 900 ming so'm, avgustda esa 1 million so'mlik elektr energiyasi. Endi tanishlarim ham o'z uylariga quyosh panellari o'rnatna boshladи.

Yaqinda Alisher Hamroyev uyiga quyosh nurlari bilan isitiladigan geliolkollektor ham o'rnatdi va issiq suv muammosini hal etdi.

Dilmurod TO'XTAYEV.

### O'zLiDeP taklifi

o'g'il-qizlarimizni uyli-joyli qilishdek  
ezgu niyat ro'yobiga xizmat qiladi



### Har bir saylovchining ovozi

partiyaga va uning nomzodlariga  
bildirilgan yuksak ishonch ifodasi



### Harbiylar Ekologik partiyani qo'llab-quvvatlashga chaqirildi



Samarqand davlat universitetida o'tkazilgan partiya saylovoldi targ'ibot tadbirida partyaning kelgusi besh yillikdagi eng muhim vazifalariga e'tibor qaratildi.

Tadbirda ishtirok etgan O'zLiDeP siyosiy kengashi ijroya qo'mitasiga raisi Aktam Xaitov partiya bu yilgi saylovlariga "Va'da emas – natija, ertaga emas – bugun" ezgu shiori ostida "5 maqsad-500 vazifani" o'z ichiga qamrab oлган saylovoldi dasturi bilan qizg'in tayyorgarlik ko'rayotganligini ta'kidladi.

Partiya keyingi besh yillikda tadbirkorlar sonini 3 million nafar dan oshirishni, kambag'allik ko'lamini ikki karra qisqartirib, aholini tadbirkorlikka jaib qilishning mahallabay dasturlarini ishlab chiqishni o'zining ustuvor vazifasi, deb biladi.

Uchrashuvda yoshlarni xorijiy tillarga o'qitish, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash hamda IT sohasi va sportga keng jalb etish borasida puxta ishlangan rejalarini amalga oshirish, xususan, ishsiz yoshlarni zamonaviy kasblarga o'qitish tizimini tubdan qayta ko'rib chiqish singari dolzarb masalalar tiliga olindi.

Qayd qilinganidek, partiya yoshlar uchun maxsus uy-joylar qurish va har yili mingta yosh oligaq imtiyozi ipoteka kreditlari berishni takif qilmoqda. Bu tashabbus mamlakatimizda yashayotgan har bir o'g'il-qizning vatanli bo'lislendi ezgu niyat ro'yobiga xizmat qiladi.

Yig'ilishda partiya saylovoldi dasturidagi boshqa muhim vazifalariga ham to'xtalib o'tildi, ishtirokchilar bo'lajak saylovlarida O'zLiDeP uchun ovoz berishga chaqirildi.

O'zLiDeP viloyat kengashi axborot xizmati.

"Milliy tiklanish" demokratik partiyasi va partiyadan parlament hamda mahalliy Kengashlarga ko'rsatilgan nomzodlar saylovoldi tashviqotini har jihatdan samarali tashkil etishga astoydil harakat qilmoqda.

Ishtixon pedagogika kolleji faollar zalida partyaning viloyat kengashi tomonidan o'tkazilgan tadbirda ham "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi saylovoldi dasturining asosiy yo'naliishlari, ularning mohiyati va ahamiyati xususida batafsil ma'lumot berildi.

Shundan so'ng partiyadan mahalliy Kengashlar deputatligiga ko'rsatilgan nomzodlar o'z saylovoldi dasturi bilan saylovchilarini yaqindan tanishtirib, kelgusidagi maqsad va rejalar bilan o'rtoqlashdi.

Tadbirda bu yil mamlakatimizda parlament deputatligiga saylovlar ilk bor aralash saylov tizimi asosida o'tkazilayotganiga e'tibor qaratilib, har bir saylovchining ovozi partiyaga va uning nomzodlariga bildirilgan yuksak ishonch ifodasi ekanligi takidlandi.

Xalq deputatlari Ishtixon tumani kengashi deputatligiga nomzod Vasilisa Solievanning Xumo mahallasi saylovchilar bilan uchrashuvda asli kasbi o'qituvchi bo'lgan deputatlikka nomzod o'z dasturida tarbiya va ta'l'im, oilalarni mustahkamlash, yoshlar bandligini ta'minlash, hududni ijtimoiy rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratganini ta'kidladi. dastur mahallalarda kuzatilayotgan ayrim muammolarni barbatish etishga xizmat qilishini bildirdi.

Nomzod saylovoldi tashviqotini nafaqat mahallalarda, shu jumladan, uyma-uy yurub tashkil etmoqda.

Partiya viloyat kengashi axborot xizmati.

Partiyadan ko'rsatilgan nomzodlarning Samarqand shahridagi O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimiga qarashli serjantlar tayyorlash markazida saylovchilar bilan uchrashuvni bo'lib o'tdi.

Uchrashuvda Oly Majlis Qonunchiligi palatasi deputati Anvar Shamisyev va boshqa nomzodlar saylovchilarini o'zi va partyaning saylovoldi dasturi bilan tanishtirib, ilgari surilayotgan g'oya va tashabbuslar xalqimizni o'yantirish kelayotgan dolzorb muammolarni hal etishda muhim dasturlaram bilbo'lishini ta'kidladilar.

Qayd etilganidek, tamaki chekish muammosi yildan-yilga global tus olmoqda. Jahan Sog'iqlini saqlash tashkiloti ma'lumotlari ko'ra, hozirda dunyodagi 7,5 milliarddan ortiq aholisi orasida 1 milliardga yaqin chekuvchilar bor. Tahillarga ko'ra, har yili tamaki iste'molchilar 5,7 milliard sigaret chekadi va taxminan 1 million tonna sigaret qoldig'ini tashlaydi. Shundan kelib chiqqan holda bunga qarshi turli mamlakatlarda kurash olib borilmoqda. Tamaki mahsulotlari chekla, yugori stavkali soliqlar qo'llash, qo'shimcha soliqlar joriy etish choralar amaliyotga tabiq etilmoqda. Bundan ko'zlaning maqsad chekmaydiganlari va atrof-muhitni tamaki chekish tufayli atrofga yetkazilayotgan zararlar ta'siridan himoya qilish bilan izohlanadi.

Partiya taklif qilayotgan O'zbekistonda tamaki soliqlarini joriy etish nafaqat davlatning sog'iqlini saqlash va iqtisodiyot sohasidagi islohotlarini qo'llab-quvvatlaydi, balki mamlakatimizning atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanishga qaratigan «yashil» siyosatini ham mustahkamlaydi.

Targ'ibot tadbirida partiya takliflarining qo'llab-quvvatlanishi orqali yashililikni, toza havo va tabiat mafusolligini saqlab qolishga hissa qo'shishi shu kabi misollar bilan asoslab berildi.

Shuningdek, partiyadan ko'rsatilgan nomzodlar saylovchilar bilan muloqotga kirishib, ularning savollariga atroflichha javob berib, taklif va mulohazalarini tingladi.

Partiya veb-sayti xabarları asosida tayyorlandi.

Samarqand viloyati hokimining QARORI

## Issiqlik bilan ta'minlovchi korxonalar tomonidan Samarqand shahri va Nurobod tumanidagi aholiga ko'rsatiladigan issiqlik ta'minoti xizmatlari uchun tartibga solinadigan narxlar (tariflar) miqdorini tasdiqlash to'g'risida

"2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budgeti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 13-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 15-sentabrdagi "Yoqilg'i-energetika sohasida bozor mexanizmlarini joriy etishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"-gi 475-ton qaroriga asosan, issiqlik bilan ta'minlovchi korxonalar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar samaradorligini yanada oshirish hamda korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish maqsadida **QAROR QILAMAN:**

1. Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2024-yil 1-iyulg'dagi VI-100-58-7-0-K/24-sloni qaroriga ko'ra, issiqlik bilan ta'minlovchi korxonalar tomonidan Samarqand shahri va Nurobod tumanidagi aholiga ko'rsatiladigan issiqlik ta'minoti xizmatlari uchun tartibga solinadigan narxlar (tariflar) miqdori tasdiqlash to'g'risida.

issiqlik ta'minoti tizimi obyektlarining holati, foydalaniishi va ularning ta'mirlanishi ustidan tizimli nazorat o'rnatilishini; ko'sitilgan xizmatlar bo'yicha to'lovlarning o'z vaqtida amalga oshirilishini, ishlarning samarali tashkil etilishini ta'minlasinlar.

2. Samarcand shahri va Nurobod tumanida issiqlik bilan ta'minlovchi korxonalar tomonidan aholiga ko'rsatiladigan issiqlik ta'minoti xizmatlari uchun tartibga solinadigan narxlar (tariflar) miqdori ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Viloyat qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasi (B.Negmatov), "Issiqlik manbal" DUK (N.Gazibekov), Samarqand shahar hokimligi (F.Umarov), Nurobod tumani hokimligi (S.Berdiqulov):

&lt;/

Davlat xizmatlari ko'rsatish sohasi fuqaro va davlat o'rtasidagi munosabatning asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Keyingi yillarda yurtimzda ham mazkur tizimni yanada takomillashtirish, xususan, xizmat ko'rsatish vaqtini qisqartirish va sifatini oshirish borasida salmoqli ishlar qilindi. Ammo u qancha isloh qilinmasin, jarayonda qonun buzilishi bor ekan, bundan birinchi navbatda fuqaro jabr ko'radi.

Ma'lumotga ko'ra, joriy yilning birinchi yarmida viloyat adliya boshqarmasi tomonidan fuqarolarning murojaatlari o'rganish, tekshirish va monitoringlar o'tkazish davomida davlat xizmatlari ko'rsatish sohasida **32509 ta qonun buzilishi aniqlangan**. Shundan, 28020 holatda davlat xizmatlari ko'rsatish muddati buzilgan, 3331 holatda murojaatlar asossiz rad etilgan, 84 holatda murojaatchidan ortiqcha hujjat talab qilingan bo'lsa, 63 holatda to'g'ridan-to'g'ri davlat xizmatlari ko'rsatilgan.

Buni tashkilotlar kesimida ko'rib chiqadigan bo'lsak, "**Samarqand suv ta'minoti**" mas'uliyati cheklangan jamiyatni va uning hududiy filiallari tomonidan shu davrda 15039 ta so'rovnomani ko'rib chiqish tartibi buzilgan. Undan keyingi o'rnlarda turgan **Davlat kadastrlari palatasining viloyat boshqarmasi** va uning hududiy filiallariда 4531 ta, "**Hududiy elektr tarmoqlari**" aksiyadorlik jamiyatni Samarqand hududiy filialida 3772 ta, **sog'liqi saqlash muassasalarida** 2208 ta, qurilish va arxitektura idoralarida 1719 ta, "**Hududig Samarqand**" gaz ta'minoti filialida 1056 ta qonun buzilishi aniqlangan. Xususan, **ichki ishlar boshqarmasi yo'i harakati xavfsizligi boshqarmasi** ham 644 holatda davlat xizmatini ko'rsatish tartibini buzgan.

Misol uchun, fuqaro T.N.ning 2024-yil 12-iyundagi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portaliga orqali yuborgan "Maishiy iste'molchilarini 20 kWt gacha bo'lgan elektr tarmoqlariga ularash" to'g'risidagi so'rovnomasi ijro uchun Paxtachi tuman elektr tarmoqlari korxonasi yuborilgan. Ma'muriy reglamentda quvvati 20 kWt gacha bo'lgan iste'molchilarini elektr tarmoqlariga ularsha texnik shartlarni ishlab chiqish talab etilmasligi va ularsh xema asosida amalga oshirilishi belgilangan. Biroq mas'ullar mazkur so'rovnomani ko'rib chiqishda reglament talablariga roya etmagan hamda quvvati 10 kWt gacha bo'lgan elektr tarmoqlariga ularsh uchun "texnik shart" ishlab chiqib, tizimga yuklagan.

Xuddi shunday, xususiy korxona rahbari I.O.ning

# Qonun buzilishiaga sabab nima?

Yoxud davlat xizmatlari dagi qulayliklarning noqulayligi

2024-yil 7-avgustdag'i "Gaz ta'minoti loyihasi-ni hududiy gaz ta'minoti korxonasi bilan kelishish" to'g'risidagi so'rovnomani "Hududig Samarqand" gaz ta'minoti filiali tomonidan 7 kunga kechiktirib ko'rib chiqigan va "aniqlanmadidi" degan vaj bilan asossiz rad etilgan. Bu kabi qonun buzilishi gaz ta'minoti korxonasi tomonidan ko'p bora takrorlangan. Bu esa aholining tizimga, umuman, davlat xizmatlari sohasiga ishonchini yo'qotmoqda.

- Yangi uyu joy qurib, gaz tarmog'iga ularish uchun ikki marta ariza yozdim, - deydi shaxsini oshkor qilmasligimizni so'ragan fuqarolardan bira. - Har gal rad javobini oldim. Davlat xizmatlari markaziga kelsam, bizda muammo yo'q deyishadi. Yana shu, eski tarib, tumandagi gaz ta'minoti korxonasi bo'risha majbur bo'ldim. Bu xalqni ovora qilish emasmi?

Biz davlat xizmati ko'rsatish jarayonidagi qonun buzilishlarining sababini bilish maqsadida yuqorida nomi tilga olingan ayrim idoralar mas'ullari bilan bog'landik. Ba'zilar mazkur raqamlar qayerdan kelganini bilmaymiz deyishsa, boshqalari aslida qonunlarni buzmaganligi, so'rovnomalarga asosli "rad" javobini berishganini ta'kidlashdi.

- Adliya boshqarmasida o'tkazilgan yig'ilishda mavzu doirasida atroficha gaplashib, fikr va takliflarimni berganmiz, - deydi "Hududiy elektr tarmoqlari" aksiyadorlik jamiyatni Samarqand hududiy filiali yetakchi muhandisi Shohruh Nomozov. - Jumladan, elektr

ta'minoti korxonasi tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar reglamenti qisqa belgilangan. Bugungi shxtatlar birligi bilan kelib tushayotgan so'rovnomalarning barchasini o'z vaqtida ko'rib chiqish imkonizi. Bundan tashqari, reja bo'yicha va davlat dasturlari bo'yicha topshiriqlar, tarmoqlarda avariya holatlari bo'ladi. Xodimlarimiz shusiz ham yuklama bilan ishlab, yana so'rovnomalarni vaqtida ko'rib chiqmaganligi uchun intizomiy jazoga tortilmoqda. Buni qayta o'rganish kerak.

Darhaqiqat, viloyat adliya boshqarmasi tomonidan joriy yilning birinchi yarim yilligida yuqorida holatlar bo'yicha vakolati idoralarining rahbarlari nomiga **41 ta taqidimma va 649 ta ogohnoma kiritilgan**. Shuningdek, **288 nafraybdor shaxsga nisbatan ma'muriy huquqbazarlik to'g'risida bayonnomma rasmiylashtirilib, 17 nafraring intizomiy javobgarlikka tortilishi ta'minlangan**. Shundan **2 nafr xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilingan**.

Demak, qaysidir ma'noda asossiz "rad" etilgan so'rovnomalar uni o'z vaqtida ko'rib chiqqa olmasligini bilgan mas'ullarning javobgarlikdan qochishga urinishi deyish mumkin. Yoki o'rtaida yana qandaydir manfaat bor. Bu harakatga sabab kerak-ku. Xullas, bir muammo ikkinchisini, u esa uchinchisini keltirib chiqarmoqda. Orada murojaatchi ovora.

Mas'ullar masalaning oxiriga yetishi kerak. Asqar BAROTOV, "Zarafshon" muxbiri.

# Kamtarin muallima edi

Muallimlik mashaqqatli kasb. Chunki ustoz turli xil xarakter-dagi bola bilan tillashishi, ularga bilim o'rgata olishi kerak. Yaxshi tomoni, muallimning nomini eslab turadigan, uning haqiga duo qiladigan ko'plab shogirdlari bo'ladi. Mehribon ustoz, oqila ayol Munazzara Narziyeva ham maktabda ishlab, umrini bolalar ta'limgarbiyasiga bag'ishladi.



M.Narziyeva 1928-yilda Samarqand tumanining Yuqori Talibzaru qishlog'da dunyoga keldi. Uning maktab yillari ikkinchihin jahon urushi davriga to'g'ri keldi. Maktab o'quvchilari ham dalaga chiqar, kattalar bilan yonma-yon mehnat qildi. Munazzara ham maktabdan kelgach, paxta dalasiga chiqib, hayotning og'ir damlarini yosh vujudi bilan his etardi.

Maktabni bitirgach, uni turmushga berishdi. Turmush o'rtog'i Ubaydulla Narziyev ziyoli inson edi. Shuning uchun Munazzarani o'qishini davom ettirib, oly ma'lumot olishga undadi. U Samarqand davlat pedagogika institutida boshlang'ich sinif o'qituvchisi mutaxassisligi bo'yicha o'qidi.


Institutni bitirgach, dastlab Samarqand shahridagi 9-maktabda boshlang'ich sinflarga dars berdi. So'ngira Samarqand tumanidagi sobiq 42-maktabda ishladi. O'quvchilarga ta'limgarbiya bilan birga mehr berdi, shogirdlari qalbidan joy oldi. Bugun muallimaning shogirdlari Vatanimizning turli jahbalarida mehnat qilmoqda.

M.Narziyeva tirishqoqligi, fidoyiligi, intizomiligi bilan jamoada hurmat-e'tiborga sazovor bo'ldi. Hamkasblari bilan ahillikda faoliyat yuritdi.

Olasida 4 o'g'il va 3 qizni tarbiyaladi. Ularni olyi ma'lumotli qildi. 50 dan ortiq nabira va evara, 5 nafr chevaraning mehribon buvisi bo'lib, keksalik onlarini o'tkazdi.

Muallimlik kasbi ortidan umrini savobli amallarga bag'ishlagan M.Narziyevaning xotirasiga farzandlari, yaqnirlari va shogirdlari qalbida yashaydi.

**Mavjud USMONOVA, Samarqand shahridagi 21-umumiyo'rta ta'limgarbiy maktabi o'qituvchisi.**



## Ogohlantirishsiz ishdan bo'shatish yoki bo'shash mumkin emas

Mehnat shartnomasini bekor qilish to'g'risida ogohlantirish muddatlariga roya qilish xodim uchun ham, ish beruvchi uchun ham majburiy hisoblanadi. Unga roya qilmaslik o'z navbatida turli nizoli holatlar yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Aytish joizki, ba'zi fuqarolar ogohlantirish xatini olmasdan, ish beruvchi mehnat shartnomasini bekor qila olmaydi, deb o'yaydi. Aslida ogohlantirishda xodimming imzosi bo'lmagan taqdirda ham ish beruvchi xodimning belgilangan muddatda ogohlantirish bilan tanishitirgani, lekin imzo qo'yishdan bosh tortgani haqida ishoncharlar dalillar keltirsa, sud xodimni o'z vaqtida ogohlantirigan deb topishi mumkin. Shu bilan birga, xodim ham o'z tashabbusiga ko'ra mehnat shartnomasini bekor qilayotganida, 14 kalender kunlik yoki ish beruvchini ogohlantirishning boshqa muddatlariga qat'iy roya etishi lozim. Agar ogohlantirish muddati tugagandan keyin xodim bilan mehnat shartnomasini bekor qilinmagan va yakka tartibdagi mehnat qidiruviga oid munosabatlar davom etayotgan bo'lsa, mehnat shartnomasini xodimning tashabbusiga ko'ra bekor qilish haqidagi ariza o'z kuchini yo'qotadi, mehnat shartnomasini ushbu arizaga muvofiq bekor qilishga yo'q yilganimaydi. Shuningdek, agar xodim mehnat shartnomasini uning amal qilish muddati tugaganligi munosabati bilan bekor qilishga qaror qilgan taqdirda, ish beruvchini mehnat shartnomasini bekor qilinuniga qadar kamida 3 kalender kun oldin yozma shakida ogohlantirishi kerak.

Dastlabki sinov muddatida ham tartib shunday. Ya'ni, u tugaganiga qadar taraflarning har bira ikkinchi tarafni kamida 3 kun oldin yozma shakida ogohlantirishga holda mehnat shartnomasini bekor qilishga haqli. Bu muddatni qisqartirishga faqat shartnomaga taraflarining

## Farzand ota-onasiga mas'ul

Ota-onalar farzandi uchun mas'ul ekanligi, u voyaga yetguna g'amxo'rlik qilishi kerakligini bilamiz. Ammo farzandning ota-onasi oldidagi majburiyatlar haqida hamma ham bilmaydi. Qonunchilikimizda bu munosabatning huquqiy asoslar belgilangan.

Farzandning ota-onasi ta'minotiga mas'ulligini shulardan bira. Odatda jamiyatidagi ayni jarayon ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi. Biroq voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bola o'z ota-onasiga moddiy yordam berishdan bo'yin tovlasa, jarayonga qonunchilik aralashadi va majburiyat sud qarori bilan belgilanadi.

Ota-ona aliment undirish haqidagi tabnibolalaridan biriga yoki barchasiga nisbatan qo'yishi mumkin. Bu holatda sud voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalarning barchasini hisobga olib alimnet miqdorini belgilaydi.

Qonunchilikka ko'ra, aliment undirish nizosi hal bo'lguniga qadar ham sud tomonidan farzanddan ota-onaga vaqtincha to'lab turilishi lozim bo'lgan summa

Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalardan undirilayotgan aliment miqdori mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 11,75 foizidan kam bo'lmasi kerak.

Mansur HASANOV, viloyat adliya boshqarmasi xodimi.

**REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56**

### DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ahtamov Erkinjon Tolibjonovich notarial idorasida marhum Djamatov Baxodur Mamatkulovichga (2016-yil 24-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rllarning Ahtamov Erkinjon Tolibjonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand tumani Xo'ja Ahror Valiy mahallasi.**

\*\*\*

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Davronov Mahmud Hasan o'g'li notarial idorasida marhum Axrorova Xalovatga (1994-yil 1-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rllarning Davronov Mahmud Hasan o'g'li notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand tumani Oqmachit mahallasi, Bag'rikenglik ko'chasi, 4-uy.**

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hazratqulov Mahmud Mo'minulovich notarial idorasida marhum Nurillayev Akmal Rafikovichga (2019-yil 18-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rllarning Hazratqulov Mahmud Mo'minulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand tumani Oqmachit mahallasi, Bag'rikenglik ko'chasi, 4-uy.**

\*\*\*

Hazratqulov Mahmud Mo'minulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 36-uy.**

\*\*\*

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ashurova Dilafraz Ziyodullayevna notarial idorasida marhum Abdiyev Temir Azimovichga (2021-yil 12-aprelde vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rllarning Ashurova Dilafraz Ziyodullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Payariq tumani Chebak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 110-uy.**

\*\*\*

### BEKOR QILINADI

Past Darg'om tumanidagi "SHOXRUX IMONA MUBINA" olibayi korxonasining (STIR: 306908074) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

\*\*\*

Ihsizlarni kasb-hunarga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish o'quv markazidan Sattarov Olimjon Yax'yevichga 2021-yil 8-iyunda berilgan ro'yxat raqami 6400, TN 6400 raqamli guvohnomaning asl nusxasi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Samarqand shahridagi 59-ko'zi ojiz bolalar uchun ixtisoslashtirilgan "Nurli maskan" maktab-internati 1961-yilda tashkil qilingan. Hozir muassasada 250 nafarga yaqin o'quvchi ta'lif-tarbiya olib, 25 ta fan, sport va madaniy to'garaklarda ham qatnashmoqda. Mazkur dargohda bo'lib, ularga yaratilgan sharoitlar bilan tanishdik.

## Zulmatdan nur topayotganlar

- Ko'zi ojiz insonlarning ko'ngli juda nozik va ichki hissiyoti, tafakkuri, eslab qolish qobiliyati kuchli, - deydi maktab direktori Abdusalim Meliev. - Faoliyatini davomida ularning psixologiyasini o'rganib, bunga amin bo'ldim. Bu xususiyatlardan, albatta, ularning jamiyatda o'z o'rnni topishi uchun asosiy rol o'yndaydi. Ular davlatdan yoki biror kimdan yordam kutmaydi, aksincha, sog'lon odamlardan ko'ra hayotga ko'proq intilib, yangilik istab yashaydi. Shularni hisobga olib, muassasada o'quvchilarga dars berish uchun ko'proq ko'zi ojiz yoki zaif ko'ruchni ustoz-murabbiylarni jaib qilganmiz. Chunki ular bir-birini yaxshiy tushunadi, o'quvchilar hech kimga ayta olmaydigan kechinmalarini shu ustozlari bilan bo'lishadi.

Maskanning bir nechta o'quvchi va o'qituvchilar fan olimpiadasining respublika bosqichiga g'olib hamda davlat mukofoti sohibi bo'lgan. Xususan, 2022-yilda ushu dargoh bitiruvchilar Sherbek Islomov hamda Rayhona Sharafova ona tili va adabiyot fanidan birinchisi, Murodjon Polvonov matematika fanidan ikkinchi o'rinni egallagan. Shuningdek, Sherbek Islomov "Mard o'g'on", Mahbuba Xalilova esa Zulfiya nomidagi davlat mukofotiga sazovor bo'lgan. Maktab o'qituvchilarini Umida Suyunova "Sodiq xizmatlari uchun" medali, Bahriiddin Isroilov esa "Mehnat shuhrati" ordeni bilan taqdirlangan.

2023-yilda fan olimpiadasining respublika bosqichidagi matematika fanidan Odina Shovdirova, tarix fanidan esa Parvez Qudratillayev birinchisi o'rinni egallagan. Shuningdek, Ganjina Nuriddinova 64 katakligi shashka bo'yicha jahon championiato sovordinori bo'lgan, Shehroz Sa'dullayev tarix fanidan respublika fan olimpiadasida ikkinchi o'rinni, Ochiloy Maylanova esa shaxmat bo'yicha mamlakat championiatida uchinchisi o'rinni egallagan.

- Ona tili va adabiyot fanidan dars beraman, - deydi Zokir Mahammamatov. - Maktabimizda o'quvchilarning bilim olishi, pedagoglarning o'quv-tarbiya jarayonini olib borishi uchun baracha sharoit yaratilgan. Jumladan, muassasamizda o'quvchilar uchun bepul yotoqxona, oshxonha mavjud. Brayl alifbosidagi adabiyot va kompyuterlar bilan ta'minlangan. O'quvchi va o'qituvchi-



larimiz fan olimpiadalari, sport musobaqlari va turli ko'rik-tanlovlardan faol ishtirot etib kelmoqda. Fan olimpiadasining respublika bosqichida g'olib bo'lgan o'qituvchilarning maoshiga qo'shimcha ustama hami tayinlangan.

Maktab o'quvchilarining aksariyati darsdan bo'sh vaqt bo'ldi deguncha, ovoz yo'zish studiyasiga oshiqar ekan. 5-sinf o'quvchisi Jahongir Abdullaevi milliy va estrada yo'nalishidagi chiqishlari bilan ijtimoiy tarmoqlarda mashhur bo'lib ulgurgan. Jahongir kelajakda san'atkor bo'lishini, hozir she'r mashq qilayotgani va kelgisida ularni qo'shiq qilib kuylashini aytadi.

Maktab jamoasi turli tanlovlardan, grantlarda ham ishtirot etib, yuqori natijalariga erishib kelmoqda. Jumladan, grant mablag'lari hisobidan zamoniav ovoz yo'zish studiyasi, kichik sport zali barpo etilgan. Ayniqsa, brayl yozuvidagi kitoblarni nashr qilish, 3D shakldagi o'quv va sport anjomlarini tayyorlash maktabning o'zida amalga oshirilyapti.

Nurli maskanda tahlil olayotgan yigit-qizlar zulmatdan nur topib, hayotda o'z o'rniiga ega bo'lish uchun harakat qilmoqda. Ba'zida to'rt muchasi sog' bo'lib ham hayotdan nolib yurganlarni uchratamiz. Aslida hayotdan nolish emas, sharoitlarni yaxshilash uchun harakat qilish kerak. Odamda xohish bo'lsa kifoya, imkoniyatlarning chegaralanganligi ahamiyatsiz.

F.FAXRIDDINOV.

Nurli maskanda tahlil olayotgan yigit-qizlar zulmatdan nur topib, hayotda o'z o'rniiga ega bo'lish uchun harakat qilmoqda. Ba'zida to'rt muchasi sog' bo'lib ham hayotdan nolib yurganlarni uchratamiz. Aslida hayotdan nolish emas, sharoitlarni yaxshilash uchun harakat qilish kerak. Odamda xohish bo'lsa kifoya, imkoniyatlarning chegaralanganligi ahamiyatsiz.

F.FAXRIDDINOV.

## Chekka hududdagi nufuzli maktab

bitiruvchilarining 94,5 foizi talaba

Paxtachi tumanidagi 29-maktab jamoasi O'qituvchilar va murabbiylar kunini yuqori natijalar bilan qarshi olyapti. 2023-2024-o'quv yilida maktabni 19 nafar bitiruvchi tamomlab, ularning 18 naftari davlat olyi ta'lif muassasalariga talabalikka qabul qilindi.



2023-yilda maktabni tamomlagan yigit-qizlarning 53,8 foizi davlat olyi ta'lif muassasalariga kirgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 94,5 foiziga yetdi.

Bunda tajribali ustozlarning alohida o'rni bor. Maktabda 500 nafar o'quvchiga 38 naftar o'qituvchi dars berib kelyapti. Ularning 9 naftari olyi toifali bo'lsa, 7 naftari xalqaro va milliy sertifikatlarga ega.

- 15 yillardan beri shu maktabda rus tili fanidan dars beraman, - deydi Nargiza Avliyoqulova. - Olyi toifaga hamda ikkitu xalqaro sertifikatga egagan. Keyingi yillarda o'z ustida ishlagan o'qituvchilar qadrilanyapti. Olyigim 12 million so'mdan ziyodroq.

To'Iqin SIDDIQOV  
yozib oldi.  
Baxtiyor MUSTANOV  
(surat).

- Birgina bitiruvchimizning omadi kelmadи, - deydi maktab direktori Oktam Samanov. - Aslida uning ham bilimi yaxshi edi. Buni testda 116 ball to'plaganidan bilsa bo'la-di. Faqat u kirish ballari yuqori bo'lgan nufuzli olyi ta'lif muassasalarini tanlagan edi. Uning maqsadini katta.

Maktabda 32 turdag'i fan va sport to'garaklari faoliyat olib boradi. Shuning natijasi o'laroq bitiruvchilarning olyi o'quv yurtlariga kirish ko'satikchi yildan yilga ortib boryapti.

2021-yilda bitiruvchilarimizning 29,4 foizi talaba bo'lish baxtgida mayussar bo'lgandi. 2022-yilda esa bu ko'rsatkich 34,7 foizni tashkil etdi.

**MUASSIS:** Samarqand viloyati hokimligi

**Bosh muharrir:** Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 11 702 nusxada chop etildi. Buyurtma 510. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

**Gazeta haftaning sheshbasi, payshanba va shanba kunlari chiqadi.**

**QABULXONA:** (66) 233-91-51, **REKLAMA VA E'LONLAR:** (66) 233-91-56

**BO'LIMLAR:** (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

**MANZILIMIZ:** 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Viloyatda sportni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar qanday ketyapti, mahallalarda qurilgan sport maydonchalarini talabga javob beradimi, sport federatsiyalari qanday ishlayapti? Tizimdag'i yangilik va o'zgarishlar, muammolar xususida viloyat sport boshqarmasi boshlig'i Shuhrat Ro'ziyev bilan suhbatlashdik.

- Joriy yilning olti oyida viloyatda ommaviy tadbirlarni tashkil etish kalendar rejasiga muvofiq, yurish, yugurish, mini-futbol, badminton, stribol va vorkout bo'yicha aholi o'ttasida tashkil etilgan yuzga yaqin sport musobaqlari va tadbirlari ga qariyb 94 ming nafr aholi jaib qilindi, - deydi Sh.Ro'ziyev. - Shu bilan birga, mahalla yoshlari o'rtasida o'tkazilayotgan «Besh tashabbus olimpiadiasi» ommaviy sport musobaqlarida ishtirot etish uchun ro'y-xatdan o'tgan 621 ming 461 nafr yoshlarning musobaqlarda ishtirot etishi ta'minlandi. Ayni paytda jara-yon davom etmoqda.

- **Shuhrat aka, keyingi ikki yilda viloyatdagi mahallalarda 80 dan ziyyod sport maydonchasi barpo etildi. Ammo ko'pchilik ushbu sog'iomlashtirish maydonchalar sifatsiz qurilgani va qarovsiz qoldirilgani haqida aytmoqda. Bu qanchalik to'g'ri?**

- Bu bor gap. Viloyatdagi mahallalarda Sport vazirligi tomonidan 2022-2023-yillarda 31 ta universal, 36 ta stribol-vorkaut, 16 ta vorkaut maydonchasi qurilgan. Mazkur maydonchalar asosan Bulung'ur, Jomboy, Ishtixon, Qo'shrabot, Narpy, Nurobod, Oqdaryo, Payariq, Past Darg'om, Samarcand, Toyloq, Urgut tumanlari hamda Samarcand va Kattaqo'rg'on shaharlardagi mahallalarda «Besh tashabbus olimpiadiasi» doirasida o'tkazilgan sport musobaqlarining respublika bosqichida birinchisi o'rinni egallagan yoshlarning mahallasiga vazirlik tomonidan qurib berilgan.

Aholidan tushayotgan murojaatlardan asosida Sport vazirligi hamda viloyat sport boshqarmasi ishchi guruhi sport maydonchalarining qurilish holati, saqlash, undan foydalanimi o'rganganda mavjud 83 ta sport maydonchasiidan 11 tasining holati qoniqarsiz ekaniliga aniqlandi. Ularning aksariyati Urgut tumanidagi mahallalarda barpo etilgan sport maydonchalaridir. Xususan, tumanidagi 13 ta sport maydonchasining 5 tasi qarovsiz ahvolga kelib qolgan. Andak, Zarafshon, Vatak, Kenagashaharlardagi sport maydonchalarining rezina qoplamasi yemirilgan. Pastki Kalangar mahallasidagi universal sport maydonchasingning ipli to'rlari yaroqsiz ahvolga kelib qolgan. Andak, Zarafshon, Vatak, Kenagashaharlardagi sport maydonchalarining rezina qoplamasi yemirilgan. Pastki Kalangar mahallasidagi universal sport maydonchasingning ipli to'rlari yaroqsiz ahvolga kelib qolgan. Vaholani, mazkur sport maydonchalar foydalanishga topshirilganiga ko'p bo'lmagan. Kattaqo'rg'on tumanidagi Do'stlik, Toyloq tumanidagi Birlik mahallasida barpo etilgan sport maydonchalarini xususida ham shunday deyish mumkin. Ya'ni, mazkur hududlarda sport maydonchalaridan unumli foydalanishga e'tibor berilmagan.

O'rganish davomida sport maydonchalarining qurilish holati va sifatiga ham baho berildi. Misol uchun, Past Darg'om tumanidagi Boldir mahallasi 2023-yilda qurib foydalanishga topshirilgan vorkaut maydonchasi qarorlari yaroqsiz ahvolga kelib qolgan. Vaholani, mazkur sport maydonchalar foydalanishga topshirilganiga ko'p bo'lmagan. Kattaqo'rg'on tumanidagi Do'stlik, Toyloq tumanidagi Birlik mahallasida barpo etilgan sport maydonchalarini xususida ham shunday deyish mumkin. Ya'ni, mazkur hududlarda sport maydonchalaridan unumli foydalanishga e'tibor berilmagan.

Aytish joizki, sport maydonchalarini saqlash va undan foydalanimi uchun nafaqat hududdagi sport maktablari mutasaddilari, balki mahalladagi yoshlar yetakchilar, jismoniy tarbiya fani o'qituvchilar mas'ul hisoblanadi.

## Sport

# sahasidagi muammo va kamchiliklar qachon hal etiladi?

- Aholining jismoniy tayyorgarlik darajasi sinovdan o'tkazilmoqda. Bu bizga nima beradi?

- «O'zbekiston — 2030» strategiyasini «Yoshlar va biznesi qo'llab-quvvatlash yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash hamda aholi o'ttasida sog'iom turmush tarzini targ'ib qilish maqsadida besh yo'nalishda «Jismoniy tayyorgarlik darajasi» sport sinovlari o'tkazilmoqda.

Viloyatda ham joriy yilning mart-aprel oyalarida 7 yoshdan 17 yoshgacha, aprel-may oyalarida 18 yoshdan 29 yoshgacha, avgust-sentabr oyalarida 30 yoshdan 49 yoshgacha, oktabr-noyabr oyalarida 50 va undan katta yoshdagagi shaxslardan hamda davlat organlari va tashkilotlarda faoliyat yuritayotgan xodimlardan sport sinovlari murakkabli darajasini hisobga oлган holda itxiyoriy va maxsus talablar asosida qabul qilinmoqda. Shuningdek, sport sinovlarning topshirgan fuqarolarning tahlili ma'lumotlari yagona elektron bazada yuritish amaliyotini joriy etish maqsadida my.sport.uz platformasida "Sport sinovlari" axborot tizimida ishga tushirilgan.

Bugungi kungacha maktab o'quvchilarining 503 ming 123 nafrni (65 foiz) sport sinovlarini topshirgan bo'lsa, OTMIdan 46 ming talaba sport sinovlarini topshirish istagini bildirdi. Yil yakuniga qadar aholining 40 foizidan sport sinovlarini qabul qilish rejalashtirilgan bo'lib, maxsus talablarni bajargan g'olib va sovrindorlar «Jismoniy tayyorgarlik darajasi» ko'krak nishoni va qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlanadi. Shuningdek, bir yil mobaynida ko'plab imtiyozlardan foydalananadi.

- Sport sohasida qanday qonunbzilish holatlari uchrayapti?

- Viloyatda sport sohasida qonunbzilish holatlari va korrupsiyaga oid huquqburzaliklar haqida xabar berish uchun vazirlig tizimida aloqa kanallari hamda ishonch telefonlari ishlamoqda. Shuningdek, tizimda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan korruption holatlarning oldini olish, davlat budjeti mablag'laridan samarali foydalishni ortiqcha qorish uchun korrashtirilgan bo'lib, maxsus talablarni bajargan g'olib va sovrindorlar «Jismoniy tayyorgarlik darajasi» ko'krak nishoni va qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlanadi. Shuningdek, keyingi yillarda penchak silat, kikboksing, shotakan karate, o'zbek jang san'ati federatsiyalari O'zbekiston milliy terma jamaosi jamoalar tarkibiga sportchi yetkazib bermayapti. Federatsiyalardagi ushu muammolar soha mas'ullari ishtirokida muhokama qilinib, topshirilgan ijrosi nazoratga olingan.

- Joriy yil yakuniga qadar sohada qanday ishlar amalga oshirilayotgan natijalarni qoniqarli deb bo'lmaydi. Jumladan, dzydu, eshkak eshish, yunon-rum kurashi, yengil atletika, gimnastika, kurash va sambo sport federatsiyalari yaxshi natija ko'satayotgan bo'lsa, basketbol, suzish, gandbol, erkin kurash, qilichbozlik, ot sporti, voleybol, sportning texnik va o'q otish, tennis, badminton, regbi federatsiyalari qoniqarsiz natija qayd etmoqda. Shuningdek, keyingi yillarda penchak silat, kikboksing, shotakan karate, o'zbek jang san'ati federatsiyalari O'zbekiston milliy terma jamaosi jamoalar tarkibiga sportchi yetkazib bermayapti. Federatsiyalardagi ushu muammolar soha mas'ullari ishtirokida muhokama qilinib, topshirilgan ijrosini ta'minlash yuzasidan ishga tushirilgan.

- Joriy yil yakuniga qadar sohada qanday ishlar amalga oshirilayotgan natijalarni qoniqarli deb bo'lmaydi. Jumladan, dzydu, eshkak eshish, yunon-rum kurashi, yengil atletika, gimnastika, kurash va sambo sport federatsiyalari yaxshi natija ko'satayotgan bo'lsa, basketbol, suzish, gandbol, erkin kurash, qilichbozlik, ot sporti, voleybol, sportning texnik va o'q otish, tennis, badminton, regbi federatsiyalari qoniqarsiz natija qayd etmoqda. Shuningdek, keyingi yillarda penchak silat, kikboksing, shotakan karate, o'zbek jang san'ati federatsiyalari O'zbekiston milliy terma jamaosi jamoalar tarkibiga sportchi yetkazib bermayapti. Federatsiyalardagi ushu muammolar soha mas'ullari ishtirokida muhokama qilinib, topshirilgan ijrosini ta'minlash yuzasidan ishga tushirilgan.

- Viloyatdagi ta'mitalab sport inshohlati manzilli dastur asosida bosqichma-bosqich ta'mirlanadi. Investitsiya dasturi bo'yicha 3 ta sport obyekti foydalanimiga topshiriladi. Xususan, Toyloq olimpiya va paralimpika sport turlariga tayyorlash markazida 250 o'rinci oshxona va 34x36 o'chamli sport zal quriladi. Viloyat futbol akademiyasida yengil konstruksiyali sendvich paneldan 24x48 o'chamdag'i sport zallari barpo etiladi. Shuningdek, viloyatimiz bir nechta nufuzli sport musobaqlariga mezonlik qiladi. Jumladan, 30-oktabr - 3-noyabr kunlari Registon maydonida "Samarkand marathon" yugurish marafoni bo'lib o'tadi. 2026-y